



## AHOLI O'RTASIDAGI TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Xasanov Jamshid**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0006-4569-743X

[zamsidhasanov041@gmail.com](mailto:zamsidhasanov041@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholi orasida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar ta'lim yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, bozor talablarini noto'g'ri baholash, huquqiy to'siqlar va innovatsion g'oyalarning yetishmovchiligi kabi muammolar yoritiladi. Shu bilan birga, ushbu muammolarga yechim sifatida tadbirkorlik ta'limini rivojlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yaxshilash, bozor tahlilini o'rgatish, huquqiy tartibotni soddalashtirish va innovatsiyalarni qo'llash kabi takliflar beriladi. Ushbu yechimlar jamiyatda tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, tadbirkorlik ko'nikmalari, biznes ta'limi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bozor tahlili, innovatsiyalar, huquqiy to'siqlar, iqtisodiy o'sish, startup, kichik va o'rta biznes, raqobatbardoshlik, kredit va grant dasturlari.

## ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У НАСЕЛЕНИЯ

**Хасанов Джамшид**

Навоийский государственный горно-технологический университет

**Аннотация.** В данной статье анализируются проблемы повышения предпринимательских навыков среди населения и пути их решения. Рассматриваются факторы, препятствующие развитию предпринимательства, такие как недостаток образования, ограниченность финансовых ресурсов, неправильная оценка рыночного спроса, правовые барьеры и нехватка инновационных идей. В качестве решений предлагаются развитие предпринимательского образования, улучшение системы финансовой поддержки, обучение рыночному анализу, упрощение правового регулирования и внедрение инноваций. Эти меры способствуют улучшению предпринимательской среды и стимулируют экономический рост.

**Ключевые слова:** предпринимательство, предпринимательские навыки, бизнес-образование, финансовая поддержка, рыночный анализ, инновации, правовые барьеры, экономический рост, стартап, малый и средний бизнес, конкурентоспособность, кредитные и грантовые программы.

## PROBLEMS AND SOLUTIONS OF FORMING ENTREPRENEURIAL SKILLS AMONG THE POPULATION

**Khasanov Jamshid**

*Navoi State Mining and Technology University*

**Abstract.** *This article analyzes the problems of improving entrepreneurial skills among the population and ways to address them. Factors hindering the development of entrepreneurship, such as lack of education, limited financial resources, incorrect assessment of market demand, legal barriers, and lack of innovative ideas, are discussed. As solutions, the article proposes the development of entrepreneurial education, improvement of financial support systems, training in market analysis, simplification of legal regulations, and the implementation of innovations. These measures contribute to enhancing the entrepreneurial environment and stimulating economic growth.*

**Keywords:** *entrepreneurship, entrepreneurial skills, business education, financial support, market analysis, innovations, legal barriers, economic growth, startup, small and medium-sized business, competitiveness, credit and grant programs.*

### **Kirish.**

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bu tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va uning samaradorligini oshirishdir. Tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va innovatsion yechimlarni rivojlantirish uchun ham asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois ham bugungi kunda aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Biroq, bugungi kunda aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish borasida bir qancha muammolar mavjud. Ularning eng asosiylaridan biri tadbirkorlik bo'yicha yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmaslik, biznesni boshlash uchun moliyaviy mablag' yetishmovchiligi, huquqiy va iqtisodiy ko'nikmalariga ega emasligi, shuningdek, ayrim hududlarda investorlarning yetarlicha jalb etilmaslik kabi omillarni sanab o'tish mumkin.

Mazkur tadqiqotda aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishdagi muammolar tahlil qilinib, ularni hal etish bo'yicha samarali yechimlar taklif etiladi. Shu jumladan, biznes ta'limini rivojlantirish, fiskal siyosati va yashil iqtisodiy tizimini takomillashtirish, mentorlik va inkubatsiya markazlarini kengaytirish kabi choralar muhokama qilinadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Mirjam van Praag (2010) Niderland iqtisodchisi, mikro-va makro darajada tadbirkorlikka ta'lim, intellektual kapital va muvaffaqiyat omillari bo'yicha eksperimentlar olib borgan. U ta'lim dasturlari orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilgan.

Bjerke (2008) Shvetsiyalik iqtisodchi, tadbirkorlik va kichik biznes metodologiyasi bo'yicha "Methodology for Creating Business Knowledge" kitobi muallifi. U tadbirkorlik bilimlari va ko'nikmalarini shakllantirish usullarini tadqiq etgan.

Shimizu (2012) (Yaponiya) Waseda universiteti professori, innovatsiya va tadbirkorlik sohasida ixtisoslashgan. U Yaponiyada start-up va tadbirkorlar uchun professional trening va yondashuvlarni ilmiy tahlil qilgan.

Ramos-Rodriguez (2010) (Ispan-evro-osiyolik kontekstda) GEM (Global Entrepreneurship Monitor) ma'lumotlari asosida ijtimoiy va intellektual kapital, tarmoq va bilim manbalarining tadbirkorlik imkoniyatlarini tanib olishdagi rolini o'rgangan. Ta'lim va tarmoq orqali ko'nikma rivojlantirishni tadqiq qilgan.

Ochilova (2024) Yoshlar va oilaviy tadbirkorlik motivatsiyasi, gender, ijtimoiy-motivatsiya va ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning fikr xulosasi yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun motivatsiya, gender va ijtimoiy omillarni hisobga olgan integratsiyalashgan yondashuv zarurligini bildirib o'tgan.

Akbarova (2023) Markaziy Osiyo va O'zbekistonda ESG boshqaruv kontekstida tadbirkorlik ta'limi va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy bob muallifi. U ESG boshqaruv tamoyillari tadbirkorlik ta'limiga integratsiyalash orqali yoshlar amaliy ko'nikmalarini rivojlantirib, barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli biznes loyihalarini amalga oshirishga tayyorlanish haqida o'z fikrlarini ma'lum qilgan.

Yuldashev (2021) va hamkorlari Namangan instituti va universiteti professorlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari, ta'lim-tadbirkorlik interaktsiyasi bo'yicha analitik maqolalar yaratilgan. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va ish o'rinlarini yaratishda muhim vosita bo'lib, universitetlar orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, amaliy tadbirlar va davlat hamda nodavlat tashkilotlar qo'llab-quvvatlashi orqali muvaffaqiyatli strategiya amalga oshirilganda yosh tadbirkorlarning ko'nikmalari rivojlantiriladi va iqtisodiy barqarorlik oshirish muallifning fikrlari va xulosasi ilgari surilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosi nazariy tahlil, empirik tadqiqot, ekspert baholash va statistik tahlil asosida yondashuvlarga tayanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati turli sohalarda sezilarli darajadagi farqlar bilan ajralib turadi, bu esa iqtisodiy diversifikatsiyaning mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur farqlarni iqtisodiy ko'rsatkichlar, investitsion jozibadorlik, mehnat resurslari taqsimoti va innovatsion yondashuvlarning qo'llanilish darajasi asosida tahlil qilish mumkin. Ushbu tafovutlarni tizimli ravishda ifodalash uchun jadval shaklida taqdim etish maqsadga muvofiq bo'lib, u turli sohalarning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi.

1-jadval

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM tarkibi 2024 yil holatiga


| O'zbekistonda jamiga nisbatan %da | Sohalar nomi                             | million so'm | %da  |
|-----------------------------------|------------------------------------------|--------------|------|
|                                   | YaIM                                     | 1 454 573,9  | -    |
|                                   | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 279 278.18   | 19,2 |
|                                   | Sanoat                                   | 384,007.5    | 26,4 |
|                                   | Qurilish                                 | 101,820.1    | 7,0  |
|                                   | Xizmatlar                                | 689,468      | 47,4 |

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.

O'zbekiston iqtisodiyotida eng katta ulush xizmatlar sektoriga tegishli bo'lib, u YaIMning 47,4% ni tashkil etadi. Sanoat 26,4% bilan ikkinchi o'rinda, undan keyin qishloq xo'jaligi 19,2% ni tashkil etadi. Qurilish sektori esa YaIMning nisbatan kichik ulushini (7%) egallaydi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning diversifikatsiyalanganligini va xizmatlar sektorining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Ushbu sohalarning samaradorligini oshirish va ularning iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirish maqsadida ilmiy asoslangan biznes strategiyalarini joriy etish, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish hamda xalqaro

tajribaga asoslangan master-klasslar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa soha mutaxassislarining malakasini oshirish va ularning zamonaviy tendensiyalarga moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.


So'nggi yillarda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar soni izchil oshib bormoqda hamda ular mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishiga sezilarli darajada hissa qo'shmoqda.



**1-rasm. 2023–2025-yillar davomida yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining o'sishi**

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.*

2023–2025-yillar oralig'ida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni izchil o'sib bormoqda. Agar 2023-yil 1-yanvar holatida ularning soni 238 188 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 283 600 nafarga, 2025-yil boshida esa 334 364 nafarga yetgan. Bu esa ikki yil ichida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni qariyb 40% ga oshganini ko'rsatadi.



**2-rasm. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni/ (2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda)**

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.*

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni har xil bo'lib, Toshkent shahri eng yuqori ko'rsatkichga ega (84,45 birlik), keyin esa Toshkent (34,39), Samarqand (31,47) va Farg'ona

(28,08) viloyatlari keladi. Kamroq faoliyat yuritayotgan hududlar orasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (8,64) va Sirdaryo viloyati (13,5) eng past raqamlarni tashkil etadi. Shunday ekan, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini ko'rib chikamiz.

## 2-jadval

## 2023–2024 yillarda tadbirkorlikda gender balansi tahlili

| Yil  | Ayol tadbirkorlar ulushi (%) | Ayollar soni | Erkaklar tadbirkorlar ulushi (%) | Erkaklar soni |
|------|------------------------------|--------------|----------------------------------|---------------|
| 2023 | 11.3 %                       | 39 078       | 83.5 %                           | 199 110       |
| 2024 | 42.7 %                       | 121 300      | 57.3 %                           | 162 300       |

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.

Mamlakatimizda 2023-2024 yillarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlarning gendir tengligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2023 yilda ayol tadbirkorlik sub'ektlari 11,3% tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 42,7 foizni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki yildan-yilga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan ayollar soni ortib bormoqda. Bu o'z o'rnida ayollar o'rtasida ham tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lganlar soni ortib bormoqda. Buning natijasida mamlakatimizda ko'pgina innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda shulardan Start-up loyihalari keng jamoada kirib kelmoqda. Ushbu loyihalarga ko'proq yoshlar tomonidan qiziqish bildirilmoqda hamda amalga oshirilmoqda. Start-up loyihalari bajarishdagi ayrim muammolar va yoshlarning qiziqish ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz (3-jadval).

## 3-jadval

## Start-up loyihalariga yoshlar qiziqishi va tizimdagi muammolar

| Ko'rsatkich               | Statistik ma'lumot                                                                           | Strat updagi muammolar                                       |
|---------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| Yoshlar qiziqishi         | 58% ishtirok etmoqda                                                                         | 24% "startup" maqomini bilmaydi                              |
| Muvaffaqiyatli asoschilar | 12% yaratgan                                                                                 | 6% muvaffaqiyatsiz                                           |
| Moliyalashtirish ehtiyoji | 70% start-uplarda \$10 000+ daromad                                                          | 89% ularga kapital yetishmaydi                               |
| Investitsiyalar hajmi     | O'zbekistonda 2024-yilda \$17.5 mln, Markaziy Osiyoda umumiy \$95 mln                        | Investitsiyalar umumiy fondga kichik ulushni tashkil etmoqda |
| Davlat yordam jami        | \$10 mlrd ajratilgan, shu jumladan yoshlar va ayollar uchun alohida fondlar tashkil qilingan | samarali taqsimot va monitoring sust                         |

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.

Start-up sohasiga yoshlar tomonidan qiziqish yuqori bo'lsa-da, ularning aksariyati bu yo'nalishdagi bilim va moliyaviy imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapti. Muvaffaqiyatsizlikka uchrash sabablari — tajriba yetishmovchiligi, sarmoya topishdagi qiyinchiliklar va metodik ko'makning sustligi bilan bog'liq. Davlat tomonidan katta mablag' ajratilayotgan bo'lsa-da, uni natijadorlikka yo'naltirish uchun tizimli ta'lim, mentorlik va investor bilan bog'lovchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

**Xulosa va takliflar.**

Tadbirkorlik salohiyatini tizimli rivojlantirish maqsadida maxsus ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish yoki mavjud iqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari tarkibida



ichki nizom asosida zamonaviy tadbirkorlik bilimlarini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan alohida ta'lim klasterini joriy etish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'lim tizimi orqali tadbirkorlarga biznes rejalashtirish, moliyaviy menejment, investitsion tahlil va marketing strategiyasi kabi amaliy bilim va ko'nikmalarni tizimli tarzda yetkazish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, o'zlashtirilgan bilimlarning ochiq ma'lumotlar bazalari, start-up platformalari va mahalliy innovatsion klasterlar orqali keng jamoatchilikka taqdim etilishi tadbirkorlarning intellektual salohiyatiga bo'lgan ijtimoiy ishonchni oshiradi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ya'ni mablag'larni yo'qotmasdan aylanishga kiritish, investitsiyalarni aniq yo'naltirish va start-up loyihalarga sarmoya tikish orqali kapitalni ko'paytirish imkonini beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2025-yil 1-yanvar holatiga yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 334 364 nafarga yetgan. Shuningdek, 2024-yil yakuniga ko'ra kichik biznes va mikrofirma subyektlarining umumiy soni 363 600 dan ortiq, bu esa mamlakat iqtisodiyotining katta qismini aynan ushbu sektor egallayotganini anglatadi. Biroq, 60% gacha tadbirkorlar rasmiy ta'lim olmasdan faoliyat boshlagan, bu esa ularning moliyaviy va boshqaruv savodxonligi pastligidan darak beradi. Shu boisdan, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularni zamonaviy iqtisodiy muhitga moslashtirish maqsadida bank sohasi mutaxassislari hamda iqtisodiyot yo'nalishidagi tajribali pedagoglarni tadbirkorlik sektorlariga yo'naltirish zarur. Bu orqali tadbirkorlarga mablag'larni boshqarish, moliyaviy risklarni minimallashtirish va kapitallarni samarali investitsiyalarga yo'naltirish bo'yicha amaliy bilimlar yetkaziladi. Bunday yondashuv, bir tomondan, ehtimoliy bankrotlik xavfini oldindan aniqlash va bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa innovatsion start-up loyihalarga kapital yo'naltirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot va xizmatlar yaratish imkonini taqdim etadi. Masalan, 2024-yil davomida O'zbekistonda start-up loyihalarga yo'naltirilgan investitsiya hajmi \$17.5 millionni tashkil etgan bo'lsa-da, bu hali umumiy iqtisodiy salohiyatga nisbatan past ulush hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan iqtisodiy ta'lim xizmatlariga pulli asosda qatnashish tizimi ushbu tashabbusni o'z-o'zini moliyalashtiruvchi modelga aylantiradi. Bu esa iqtisodiy bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirib, ta'lim-tadbirkorlik integratsiyasini yanada barqaror va innovatsion tarmoqqa aylantirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

- Akbarova, B.Sh. (2023) 'Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ayollar bandligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari', *ResearchGate*, pp. 2–4.
- Bjerke, B. (2008) *Methodology for Creating Business Knowledge*. SAGE Publications, pp. 36–81, 252–275.
- Drucker, P. (2014) *Innovation and Entrepreneurship*. Routledge, pp. 188–206.
- Harvard Business Review (n.d.) *Tadbirkorlik bo'yicha ilmiy maqolalar va tahlillar*.
- Kiyosaki, R. (2017) *Rich Dad Poor Dad. 20th Anniversary edn*. Plata Publishing, pp. 23–50.
- Kotler, P. and Keller, K. (2021) *Marketing Management*. Pearson Education, pp. 1–42.
- Odilova, G.O. (2024) 'Challenges and Solutions for Young Entrepreneurship and Business Skills', *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 13(03), pp. 50–54.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (n.d.) *Tadbirkorlik subyektlari 2023–2024 yillar [online]*. Available at: <https://stat.uz>
- Ramos-Rodriguez, A.R. (2010) 'What you know or who you know? The role of intellectual and social capital in opportunity recognition', *International Small Business Journal*, pp. 566–582.
- Schumpeter, J.A. (2000) *The Theory of Economic Development*. Harvard University, pp. 60–95.

Shimizu, H. (2012) 'Schumpeterian patterns of innovation and the sources of breakthrough inventions: evidence from a data-set of R&D awards', *Journal of Evolutionary Economics*, 22(4), pp. 785–810.

Praag, M. (2010) 'The impact of entrepreneurship education on entrepreneurship skills and motivation', *European Economic Review*, pp. 442–454.

World Bank, International Monetary Fund (IMF) and Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) (n.d.) *Xalqaro tashkilotlarning tadbirkorlik bo'yicha hisobotlari*.

Ашурова, Н.Б. (2011) 'Экономико-статистический анализ механизма стимулирования малого бизнеса и предпринимательства в Республике Узбекистан', *Вопросы статистики*, 6, pp. 56–58.

Ашурова, Н.Б. and Чекулаева, К. (2025) 'Эффективность внедрения корпоративной социальной ответственности в достижении устойчивого развития и перехода к зеленой экономике', *Science*, 4(S1-1), pp. 197–204.